






## 85. Kub qirralari uzunliklari yig'indisi

**Yondosh mavzu:**  
ko'rgazma.

Kub, qirra, yoq, uch.




1. Ko'rgazmada bir rassomning ishlari namoyish qilindi. Rasmlarga qarab, qaysi kubga ko'proq sim ketganini aniqlay olasizmi?



**Kub 12 ta bir xil qirradan iborat.**  
**Kubning barcha qirralari uzunliklari yig'indisi:**

$$L = a \cdot 12$$




2. Masalalarga doir ifodalar tuzing va ularni hisoblang.
- Simdan tomoni 15 cm bo'lgan kub yasash kerak. Buning uchun qancha sim kerak bo'ladi?
  - Kub yasash uchun 540 dm sim ketdi. Bu kub qirrasining uzunligini toping.
  - Uzunligi 180 cm bo'lgan simdan tomoni uzunligi 12 cm bo'lgan kub yasaldi. Qancha sim ortib qoldi?

3. Kub qirrasining uzunligi 16 cm. Uning qirralari uzunliklari yig'indisi nimaga teng? Bu kubning har bir qirrasini 3 cm ga uzaytirsak, uning qirralari uzunliklari yig'indisi qanday o'zgaradi?

## 85. Kub qirralari uzunliklari yig'indisi



4. Kubning barcha qirralari nomini yozing. Kubning barcha qirralari uzunliklari yig'indisi 144 cm bo'lsa, daftaringizda uning  $AB$  qirrasini yasang.



5. Tenglamalarni tekshirishlar bilan yeching.

$$12 \cdot x = 34 \cdot 42$$

$$t \cdot 12 = 72\,000 : 60$$



6. Ko'rgazmada 63 ta mashhur rassomning asarlari namoyish etildi. Rassomlarning uchdan bir qismi 5 tadan, qolganlari esa ikkitadan asarini olib keldi. Ko'rgazmaga jami nechta asar qo'yilgan?



7. Taqqoslang.

$$14 \text{ cm } 3 \text{ mm} \quad \square \quad 143 \text{ cm}$$

$$5 \text{ dm}^2 \ 4 \text{ cm}^2 \quad \square \quad 54 \text{ cm}^2$$

$$3 \text{ m}^3 \ 17 \text{ dm}^3 \quad \square \quad 3170 \text{ dm}^3$$

$$52 \text{ kg} \quad \square \quad 52\,010 \text{ g}$$

$$3 \text{ q } 15 \text{ kg} \quad \square \quad 450 \text{ kg}$$

$$27 \text{ l} \quad \square \quad 2070 \text{ dm}^3$$



8. Hisoblang. Harflarni amallar tartibi bo'yicha qo'yib chiqsangiz, darsning kirish qismidagi suratda ko'rsatilgan haykalning nomini bilib olasiz. Ifodalarning qiymati esa bu haykal o'rnatilgan yilni bildiradi.

$$5 \ 593 \ + \ 638 \ - \ 4 \cdot (378 \ - \ 296) \cdot 13$$

M   O   L   A   A



9. Amallar tartibiga rioya qilgan holda hisoblang.

$$1321 + (1600 - 500 \cdot 255 : 100) \cdot 809$$



10. Uyingizda bir xil uzunlikdagi tayoqchalardan kub yasang. Tayoqchalarni plastilin yoki boshqa narsa bilan bir-biriga mahkamlang.